

**"TASDIQLAYMAN"**
**"O'zbekgidroenergoqurilish"**
**Iqtisodiyot va Moliya ishlari bo'yicha**
**direktor J.Hazratqulov**
**"12" Oktyabr 2026 yil**

# Texnik topshiriq

**Toshkent viloyati Bekobod shahar "O'zmetkombinat" AJ omborida turgan mavjud armaturalarni Farg'ona viloyati So'x tumanidagi So'x daryosi hududidagi So'x GES obyektiga yetkazib berish**

| № | Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati | Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni |
|---|---|---|
| 1 | Obyekt nomi | Toshkent viloyati Bekobod shahar "O'zmetkombinat" AJ omborida turgan mavjud armaturalarni Farg'ona viloyati So'x tumanidagi So'x daryosi hududidagi So'x GES obyektiga yetkazib berish |
| 2 | Ishlarni bajarish uchun asos | "O'zbekgidroenergoqurilish" AJ hamda "Gidroqurilish buyurtmachi xizmati" MCHJ o'rtasida 2026 yil 16 iyunda imzolangan №14/484153-EPC-sonli shartnoma |
| 3 | Buyurtmachi tashkilot nomi: | Buyurtmachi – "O'zbekgidroenergoqurilish" AJ.<br>Manzil: 100124, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, Katta Yalong'och-ota MFY, Feruza dahasi, 15-a uy.<br>Bank: ATB "Turonbank",<br>Hisob raqami: 22626000600124978005,<br>MFO: 00446<br>OKED: 42220<br>STIR: 201055147<br>e-mail: uzges@uzgidro.uz |
| 4 | Ijrochi tashkilot nomi: | Tanlov savdolari natijalariga ko'ra aniqlanadi |
| 5 | Ish turi | Toshkent viloyati Bekobod shahridagi "O'zmetkombinat" AJ omborida saqlanayotgan armatura mahsulotlarini yuklash, tegishli yuk tashish transport vositalarida Farg'ona viloyati So'x tumanidagi So'x GES qurilish obyektiga xavfsiz va belgilangan muddatlarda tashib yetkazish, Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga tushirish hamda belgilangan tartibda topshirish xizmatlarini amalga oshirish. |
| 6 | Ishlarni bajarish muddati | Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun |
| 7 | Ishlarni bajarish hududi | Yuk ortish joyi – Toshkent viloyati Bekobod shahar "O'zmetkombinat" AJ |

| | | |
|---|---|---|
| | | Yuk tushirish joyi – Farg'ona viloyati, So'x tumani, So'x daryosida qurilayotgan So'x GES qurilish maydoni.<br>Tashish masofasi taxminan 480km |
| 8 | Ishlar tarkibi | Ijrochi quyidagi ishlarni bajarishi shart:<br>• armatura mahsulotlarini transport vositasiga xavfsiz yuklash;<br>• yukni tashish uchun tegishli yuk ko'tarish quvvatiga ega transport vositalarini taqdim etish;<br>• armatura mahsulotlarini belgilangan manzilga tashib yetkazish;<br>• tashish vaqtida yukning butligi va saqlanishini ta'minlash;<br>• yukni transport vositasida ishonchli mahkamlash va tashish xavfsizligini ta'minlash;<br>• zarur hollarda tegishli ruxsatnomalar va kuzatuv avtomashinalarini tashkil etish;<br>• armatura mahsulotlarini So'x GES qurilish obyektida Buyurtmachi ko'rsatgan joyga tushirish;<br>• bajarilgan tashish ishlari bo'yicha armatura mahsulotlarini Buyurtmachiga belgilangan tartibda topshirish. |
| 9 | Boshlang'ich narxi QQS bilan (so'm) | Jami 294 000 000 (ikki yuz to'qson to'rt million) so'm. Har bir reys uchun 14 700 000 (o'n to'rt million yetti yuz ming) so'mdan jami 20 (yigirma) reysni tashkil etadi. |
| 10 | Moliyalashtirish shartlari | Oldindan avans to'lovi nazarda tutilmaydi. Har bir reys bajarilib, tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va elektron hisob-faktura rasmiylashtirilgandan so'ng, amalda bajarilgan reys uchun 100 foiz to'lov amalga oshiriladi. |
| 11 | Alohida shartlar | Ijrochi:<br>• Yuklarni, shu jumladan metall mahsulotlari va armaturalarni tashish bo'yicha tegishli tajribaga ega bo'lishi;<br>• Zarur miqdorda yuk tashish transport vositalariga ega bo'lishi yoki ulardan qonuniy foydalanish huquqiga ega bo'lishi;<br>• Malakali haydovchilarni jalb qilishi;<br>• Transport vositalarining texnik soz holatda bo'lishini ta'minlashi;<br>• Amaldagi mehnat muhofazasi, yo'l harakati xavfsizligi va ekologiya talablariga rioya qilishi;<br>• Armatura mahsulotlarini yuklash, tashish va tushirish jarayonida ularning butligi va saqlanishini ta'minlashi;<br>• Yuk tashish jarayonida armatura mahsulotlarining yo'qolishi, kamomadi yoki shikastlanishi aniqlangan taqdirda, ushbu holat Buyurtmachi va Ijrochi vakillari ishtirokida tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Yetkazilgan zarar miqdori yukning haqiqiy kamomadi yoki shikastlangan mahsulot qiymatidan kelib chiqib, tegishli tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi. Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zarar Ijrochi tomonidan to'liq qoplanishi shart. |

| | | |
|---|---|---|
| | | • Ijrochi tashish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, jumladan yoqilg'i, haydovchilar, yuklash-tushirish ishlari, ruxsatnomalar, kuzatuv, sug'urta va boshqa zarur xarajatlarni o'z taklif narxiga kiritishi shart; |
| 12 | Tashish ishlariga qo'yiladigan asosiy talablar | • Armatura mahsulotlarini yuklash, tashish va tushirish ishlari amaldagi yo'l harakati, mehnat muhofazasi va yuk tashish xavfsizligi talablariga muvofiq amalga oshirilishi;<br>• Transport vositasining yuk ko'tarish quvvati tashiladigan armatura mahsulotlarining haqiqiy og'irligiga mos bo'lishi;<br>• Armatura mahsulotlari transport vositasiga yukning siljishi, tushib ketishi yoki shikastlanishiga yo'l qo'ymaydigan tartibda joylashtirilishi va ishonchli mahkamlanishi;<br>• Armatura mahsulotlarini tashish uchun uzunligi 11,7 metr bo'lgan uzun o'lchamli metall mahsulotlarini tashishga mo'ljallangan bortli yuk avtomobillari, yarim tirkamali yuk transport vositalari (shalanda)dan foydalanilishi shart. Har bir transport vositasining yuk ko'tarish quvvati kamida 25 tonnani tashkil etishi lozim. Transport vositalari yuklarni xavfsiz joylashtirish, ishonchli mahkamlash va belgilangan manzilga shikast yetkazmasdan tashish uchun zarur texnik talablarga javob berishi shart.<br>• Zarur hollarda og'ir yoki yirik gabaritli yuklarni tashish uchun amaldagi tartibda tegishli ruxsatnomalar rasmiylashtirilishi;<br>• Zarur hollarda maxsus kuzatuv transport vositalari tashkil etilishi;<br>• Yuklash va tushirish ishlari xavfsiz tashkil etilishi, ushbu jarayonlarda xavfsizlik zonasi belgilanishi;<br>• Yuklash va tushirish ishlarida foydalaniladigan texnika va moslamalar texnik soz holatda bo'lishi;<br>• Ishlarga jalb qilingan xodimlar tegishli shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi;<br>• Tashish davomida armatura mahsulotlarining yo'qolishi, kamayishi, deformatsiyalanishi yoki boshqa tarzda shikastlanishiga yo'l qo'yilmasligi;<br>• Armatura mahsulotlari Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga tushirilishi va tegishli hujjatlar asosida topshirilishi.<br>• Armatura mahsulotlarini So'x GES qurilish obyektiga yetkazib berishda O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iz Respublikasi davlat chegarasidan o'tish bilan bog'liq zarur ruxsatnomalar, hujjatlar, kelishuvlar va boshqa tashkiliy masalalarni Ijrochi mustaqil ravishda hal qilishi hamda ushbu jarayon bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z taklif narxiga kiritishi shart. |

| | | |
|---|---|---|
| 13 | Sifat nazorati va ishlarni qabul qilish | • Armatura mahsulotlari Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ro'yxat va miqdorlarga muvofiq, shikastlanmagan va to'liq holda yetkazilishi;<br>• Yuklash, tashish va tushirish jarayonida armatura mahsulotlarining butligi va saqlanishi ta'minlanishi;<br>• Har bir bajarilgan reys yakunida tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtirilishi;<br>• Tashish ishlari Buyurtmachi vakili nazorati ostida amalga oshiriladi;<br>• Hisob-kitoblar amalda bajarilgan xizmat hajmi bo'yicha rasmiylashtirilgan qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va elektron hisob-fakturalar asosida amalga oshiriladi. |

Moddiy tehnika ta'minoti bo'limi A.Yuldashev